

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI
PhD 03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

AKRAMOV MUXAMMADALI MURODJON O‘G‘LI

**CHIGITNI LINTERLASHDAN OLDIN TOZALASH BILAN CHIGIT VA
MOMIQ SIFATINI OSHIRUVCHI TOZALAGICH KONSTRUKSIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yisha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Technical Sciences**

Акромов Мухаммадали Муроджон о'ғ'ли

Chigitni linterlashdan oldin tozalash bilan chigit va momiq sifatini
oshuruvshi tozalagish konstruktsiyasini ishlab chiqish 3

Акромов Мухаммадали Муроджон угли

Разработка конструкции очистителя семян перед
линтерованием с улучшением качество линта и семян 21

Акромов Mukhammadali

Seed with sleaning before linting and developing a sleaner design
that improves lint quality 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI
PhD 03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

AKRAMOV MUXAMMADALI MURODJON O‘G‘LI

**CHIGITNI LINTERLASHDAN OLDIN TOZALASH BILAN CHIGIT VA
MOMIQ SIFATINI OSHIRUVCHI TOZALAGICH KONSTRUKSIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.2.PhD/T4671 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Farg'ona politexnika instituti" da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Namangan muxandislik texnologiyalar instituti" huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djamolov Rustam Kamolidinovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kayumov Abdumalik Xamidovich
texnika fanlari doktori, professor

Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «3» may soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100116, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7, tel: (+99869) 228-76-65, 228-76-68, faks: 228-76-65; e-mail: niet_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti).

Dissertatsiya bilan Namangan muxandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (381-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100116, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7, tel:(+99869) 228-76-65, 228-76-68.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «19» aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil «15» martdagi 31/3 raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A.Mahsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

N.M.Safarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasiga bo'lgan talab paxta bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda paxtaning yangi seleksiya navlarini yetishtirish va rayonlashtirish, urug'lik chigit tayyorlash texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib maxsulot iste'mol xususiyatlarini yanada yaxshilash va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish evaziga uning ulgurji narxlarni kamaytirish yetakchi o'rinlardan birini egalamoqda. Shu jihatdan dunyo miqiyosida paxta urug'lik chigitining sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish, uni sifatli saralash bilan mag'zi to'q urug'liklarni ajratish asosida unib chiqish quvvatini oshirish, urug' sarfini kamaytirish, kasallikka chidamliligini oshirish maqsadida chigit tayorlashning barcha bosqichlarida, shuningdek, uni tozalash jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali uning tannarxini pasaytirish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan amalyotga foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish orqali paxta va chigitini iflos aralashmalardan tozlash texnologiyalariga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan paxta chigitini iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalari qo'yilmokda. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida mahsulot sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni, paxta chigitini tozalash texnologik jarayonida uning sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishni imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni ishlab chiqish, barcha texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayan natijalarga erishilmoqda. Shu jihatdan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillardagi mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni, jumladan "...Milliy iqtisodiyot barqarorligigi ta'minlash va yangi ichki mahsulotda sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan olinayotgan momiqni va chigitni sifatini oshirish uchun uni pnevmatik usulda samarali tozalashni amalga oshiradigan mashinalarning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash muhim ahamiyatni kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyuldagi PQ-308-son "Paxta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF60-son "2022-2026 yiladagi mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, кечиктириб О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 11 yanvar “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 11- sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 dekabr “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 391 – sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Paxta chigitini tozalash uskunalarini takomillashtirish bo‘yicha xorijda S.E.Hughs, G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, V.G.Arude, S.K.Shukla, D.W.VanDoorn, B.M.Norman va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxta chigitini iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo‘yicha Respublikamizning bir qator olimlari, shu jumladan Koloyarov L.F., Tashlanov A.K., Yasheva E.YA., Aydarov Sh.G., Rakipov V.G., To‘xtaboyev S, To‘ychiyev V.X., Rasoboyev A, Yusubaliyev A, Axmedxodjayev X.T., Djamolov R.K., Zokirov T.A., Abdurashidov G.A, Kulagin A.I., Yegorov N.P. va boshqalar soha rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Chet el va mahalliy chigitni iflosliklardan tozalash uskunalari tahlilidan aniqlandiki, bugungi kunda yuqori sifatli momiq va chigit olinishini ta‘minlaydigan, shu jumladan jinlangan chigitni iflosliklardan tozalash mashinalarini takomillashtirish masalalari o‘zining samarali yechimini to‘liq topmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona politexnika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinlangan chigitlarni iflosliklardan tozalash uskunasini ishlab chiqish bilan momiq va chigit sifatini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

jinlangan chigitlarni tozalash uskunalarining tahlilini olib borish;

paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan chigit va momiqning sifatini tahlil qilish;

jinlangan chigitni tozalash uskunasining sxemasini ishlab chiqish asoslanishi kerak bo‘lgan parametrlarini belgilash;

jinlangan chigitni pnevmatik tozalash uskunasining nazariy tahlilini olib borish;

uskunaning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha tajriba ishlarini o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish;

uskunaning ishlab chiqarishdagi sinov ishlarini o‘tkazish va iqtisodiy samara ko‘rsatkichlarini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxta chigitini iflosliklardan tozalash uskunasi tajriba nusxasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida jinlangan chigitlarni iflosliklardan tozalashning yangi uskunasi olindi va chigitni tozalash jarayonini uning texnologik ko'rsatkichlariga bog'liqligi qonuniyatlari, tukli chigitni kameradagi harakat qonuniyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida paxtani dastlabki ishlash, matematik statistika usullaridan, nazariy va amaliy mexanika, solishtirish, kuzatish, baholash va maqsadli elektron dasturlar yordamida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinlangan chigitlarni linterlashdan oldin iflosliklardan tozalash uchun havo tezligini rostlovchi mexanizml, chigitlarni titkilovchi prujinali moslamaga ega pnevmatik tozalash uskunasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan uskunaning tozalovchi kamera ichida harakatlanayotgan tukli chigitlarni massasini inobatga olib uning qiya tekislikdagi harakat tenglamasi asosida chigitdan iflosliklarni ajratishdagi tezliklarini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan;

uskuna tozalovchi kameradagi chigit oqimidan iflosliklarni ajratishda OY o'qi bo'yicha harakat ifodasidan chigit oqimidan bir qismini iflosliklardan ajratishdagi havo oqimi ta'siridagi uzatishda kuchlar ta'sirida chigit oqimini ajratishdagi massalariga va yo'naltirgichlarga bog'liqlik tenglamasi ishlab chiqilgan;

jinlangan chigitni tozalash uskunasi ko'p omilli tajribalar asosida chigit uzatish tarnovining og'ish burchagini, iflosliklarni chiqarish quvurining burchagini va so'ruvchi havo tezligining optimal qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinlangan chigitlarni linterlash jarayonidan oldin iflos aralashmalardan, singan chigit bo'laklaridan tozalovchi pnevmatik uskuna konstruksiyasi ishlab chiqilgan va amalyotga joriy qilingan;

jinlangan chigitni tozalash uskunasi konstruksiyasi ishchi organlarini optimal parametrlari aniqlanib, chigit oqimidan havo orqali iflosliklarni ajratish rejimlari aniqlangan;

bu orqali yuqori tozalash samaradorligini, chigitlarning mexanik shikastlanishini kamayishini va yuqori ish unumdorlik orqali resurslarni sezilarli darajada tejilishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ko'rib chiqilayotgan predmet sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarining mosligiga, paxta chigitini iflosliklardan tozalash jarayonining matematik modellarini oqilona tanlash va chigitni iflosliklardan tozalash uskunasi yangi konstruksiyasini ishlab chiqarishgan joriy etish sinovidan o'tkazishning ijobiy natijalariga muvofiqligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati paxta chigitini ifloslikdan tozalovchi pnevmatika bilan tozalash jarayonini bog'lanishlari va tozalash samarasini chigitni ishchi organlarga maqbul miqdorlarda berishni analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, texnologik jarayonni ratsional ko'rsatkichlarini aniqlangiligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan paxta chigitini iflosliklardan tozalash uskunasining tajriba-sanoat nusxasidan foydalanishda jinlangan chigitni ifloslikdan tozalash samaradorligi yuqoriligi va paxta tozalash korxonalarida uskunani o'rnatish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Jinlangan chigitni iflosliklardan tozalash uskunasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy ishlar natijalari asosida:

Chigitni iflosliklardan tozalash uskunasini Farg'ona viloyati "BULUT TEXTIL" MCHJga qarashli paxta tozalash korxonasining jin-linter sexiga joriy etildi (O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2024 yil 28 oktyabrdagi №03/25- 2878 sonli ma'lumotnomasi). Natijada I-sanoat navli paxtalardan olingan chigitni tozalashdan so'ng chigit iflosligi o'rtacha 0,55% gacha tushushiga, tozalash samarasi 38,9% gacha kamayishiga, iflos aralashmalar tarkibida chigit miqdori 0,14% gacha kamayishiga erishilgan. Shuningdek IV-sanoat navli paxta chigitini tozalanganda ifloslik 2,1 % ga kamayishiga, tozalash samaradorligi 34,3 % ga ortishiga, chiqindidagi chigit miqdori 0,15 % gacha tushirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan xorijiy jurnallarda 1 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanadi, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi; uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini tavsiflaydi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot beradi.


Dissertatsiya ishining "**Masalaning holati va tadqiqot yo'nalishining asoslari**" deb nomlangan birinchi qismi adabiy manbalarning analitik tahlili hamda paxta tozalash korxonalarida chigitni tozalash uskunalarning tahlili va texnik vositalarining hozirgi holati, linterlashdan oldin chigitni tozalash bo'yicha ilmiy ishlar tahliliga bag'ishlangan.

Olib borilgan tahillardan ma'lum bo'ldiki, chigitlarni linterlashdan oldin sifatli tozalashni tashkil etishdan keyingi bosqichlardagi momiqni tozalash uskunasini ishlatilmasligi ham mumkin. Chigitni tozalashni amalga oshirishdan, keyingi mahsulot bo'lmish momiqni oliy sinfga mansublarini miqdorini ortishiga va linterlangan


chigitlarning asosiy qismini 1 sinfga o‘tishiga, elektr energiya sarfini kamaytirishga erishiladi. Shuning uchun jinlangan chigitlarni linterlashdan oldin iflosliklardan tozalash uskunasi ishlab chiqish bo‘yicha yo‘nalish olindi.

Dissertatsiyaning ishining **“Chigitni pnevmatik tozalash uskunasining nazariy tahlillar”** nomli ikkinchi bobida chigitlarni tozalagich kamerasida va kameradagi rostlovchi ta’siridagi harakatining nazariy tahlili, tozalagich kamerasida chigit oqimidan iflosliklarni ajratishning nazariy tahlillari bayon etilgan.

Tarnovdan uzatilgan tukli chigitlar rostlovchi panjara ta’siri hamda havo yordamida iflosliklardan ajratish harakatini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Tukli chigitlarni tozalashda rostlovchi panjara ta’siri sxemasi



2-rasm. Rostlovchi panjara sirtidagi tukli chigitlarga tashqi kuchlar ta’siridagi harakat sxemasi.

Tukli chigitlarga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar og‘irlik kuchini rostlovchi qiyaligidagi proyeksiyalari.

$F_g = m \cdot g \cdot \sin \alpha$; $F_{ish} = f \cdot (N + F)$ -ishqalanish kuchi $F_{ish} = \vartheta_0 \cdot C_0$ -havo oqimining kuchi, C_0 -havoning qarshilik koeffitsienti, ϑ_0 -havoning tezligi, N -normal bosim kuchi.

Shunday qilib ishqalanish kuchi quyidagicha aniqlanadi.

$$F_{ish} = f \cdot (-m \cdot g \cdot \sin \alpha + C_0 \cdot \vartheta_0) \quad (1)$$

Tukli chigitlarni massasini inobatga olib uning qiya tekislikdagi harakat tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{x} = m \cdot g \cdot \sin \alpha - F_{ish} \quad (2)$$

(2) tenglamaga F_{ish} va F kuchlarni ifodasini qo‘ysak va chigitdan iflosliklarni ajratishdagi tezliklarini aniqlovchi ifodasini hosil qilamiz.

$$m \cdot \dot{\vartheta}_x = m \cdot g \cdot \sin \alpha - f \cdot (-m \cdot g \cdot \sin \alpha + C_0 \cdot \vartheta_0)$$


$$m \cdot \dot{\vartheta}_x = m \cdot g \cdot \sin \alpha \cdot (1 + f) - f \cdot C_0 \cdot \vartheta_0 \quad (3)$$

(3) tenglamadan $\vartheta_x = 0; t = 0$ bo'lganda sharti bilan echib tukli chigitdan iflosliklarni ajratishdagi jarayonidan $\vartheta_x = \vartheta_x(t)$; ni aniqlaymiz. So'ngra chigitning qiya tekislik ustidagi ko'chishini $\frac{du}{dt} = \vartheta_x(t)$; tenglamani $u(0) = 0$ sharti bilan yechib, chigitning harakat qonuniyatini aniqlaymiz.


Xususan havo oqimining yo'nalishini o'zgartiruvchi rostlovchi panjara burchagining $\alpha = 0^\circ \div 60^\circ$ o'zgarishi bo'yicha tezligining tukli chigitlarni yo'nalishiga ta'sir tahlili aniqlangan.

$$\vartheta_x = \frac{g \cdot \sin \alpha \cdot (1 + f)}{\mu} \cdot (1 - e^{-\mu t}) \quad (8)$$

(8) tenglikdan tukli chigit oqimining tozalash kamerasidagi tezliklarini havo rostlovchining turli xil burchaklaridagi harakatini aniqlaymiz va Maple dasturi orqali grafiklarda tahlili keltirilgan.



3-rasm. Tozalash kamerasidagi chigitning tezliklarini rostlovchining turli xil $\alpha_1 = 30^\circ$
 $\alpha_2 = 45^\circ$ $\alpha_3 = 60^\circ$ burchaklaridagi vaqtga bog'liq grafigi



4-rasm. Tozalash kamerasidagi chigit aralashmasining massalarining turli xil $m_1 = 0.5 \text{ gr}$, $m_2 = 1.5 \text{ gr}$, $m_3 = 2.5 \text{ gr}$ qiymatlarida rostlovchi burchak o'zgarishi bo'yicha grafigi

Tozalash kamerasidagi tukli chigit oqimini tozalashda havoni rastlovchi panjaraning ratsional burchagi va otrajitellarning ta'siri natijasidagi chigitlarning harakat traektoriyalarini yuqoridagi grafiklarda keltirildi, bunda asosan chigitlardan iflos aralashmalarni ajratishda havo oqimining tezligini, rostlovchi panjaraning burchaklarini va chigitlarning o'rtacha og'irligini inobatga olgan holda samarali tozalash jarayoniga ta'sirini traektoriyalarida ko'rsatib o'tildi. Tezliklarini rostlovchining $\alpha_2 = 45^\circ$ qiymatida hamda massalarining turli xil $m_1 = 0.5 \text{ gr}$, $m_2 = 1.5 \text{ gr}$, $m_3 = 2.5 \text{ gr}$ qiymatlaridagi tozalash jarayonida aniqlangan qamrash burchaklarini havo tezliklariga bog'liqlik ifodasidan chigit oqimidan iflosliklarni ajratishda va saralashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiya ishining **“Linterlashdan oldin chigitni tozalash uskunasi ishlab chiqish bo'yicha amaliy izlanishlar”** deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan usullar, shuningdek ishlab chiqilgan jinlangan chigitni tozalash uskunasi asosiy ko'rsatkichlari va rejimlarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Jinlashdan so'ng chigitlar orasida iflos aralashmalar, qum, tosh, chang va tasodifan tushgan metall buyumlar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, chigitlar massasida nuqsonli rivojlanmagan chigitlar mavjud bo'lib, ularni vintli konveyerlar va elevatorlar orqali tashish va keyinchalik qayta ishlash jarayonida maydalanishi va ishlab chiqarilgan momiqning ifloslanishini oshirishi mumkin.

Taklif etilayotgan tozalash qurilmada chigitlarni kameraga elevator orqali uzatiladi va ventilyator orqali havo va iflosliklari so'riladi.

Taklif etilayotgan uskunani jarayonga o'rnatish sxemasi 5-rasmda keltirilgan.

Pnevmatik chigit tozalagichi quyidagicha ishlaydi: yig'ish shnegi 1 bilan jindan chiqayotgan chigit va aralashmalar elevator 2 bo'yniga kiradi, chigitlar elevator 2 kovshlari orqali yuqoriga ko'tariladi. Elevatoridan chigit otrajatel 4 orqali tarnov 3 ga yo'naltiriladi, chigitning oqimi chigitni tozalash kamera 8 ga tushadi. Ventilyator 12 chang havoni quvur liniyasi 11 orqali so'radi, toza havo quvur liniyasi 5 orqali chigit tozalagichga kiradi va chigit tozalagichga 8 toza havo oqimi bilan tartibga solinadigan panjara 6 va chigit tozalagichdan chiqadigan urug'lar otrajatel 7 bilan tartibga solinadi. Keyin urug'lar linter 10 larning yig'ish shnegi 9 ga yetkazib beriladi. Ifloslangan havo ventilyator 12 bilan quvur 13 orqali so'riladi va siklon 14 ga kiradi. Siklonda tozalangan havo atmosferaga chiqariladi va ifloslangan moddalar qopga yig'iladi.

Jinlangan chigitni linterlashdan oldin tozalash bilan olingan momiq va chigitning iflosligini kamaytirish bilan mahsulot sifatini oshirishga erishiladi. Bunda chigitni tozalashda ishlatiladigan uskunalarning resurstejamkorligini va energiya tejamkorligini oshirish uchun jinlangan chigitni linterga, elevator tomonidan uzatishda chigit tushish tarnovi o'rniga tozalagich uskunasi o'rnatish tavsiyasi ishlab chiqildi.


Tajribalarni o'tkazishda asosan ikki xil: ya'ni yuqori I va pastki IV-sanoat navlari olindi. Asosan chigitni elevatoridan tashlanayotgan vaqtda chigit uzatish tarnovida tiqilmasda tarnov yuzasi bo'ylab sirg'anib tushishi uchun uning og'ish burchagini aniqlash kerak bo'ladi. Bunda tarnovning og'ish burchagini 36° dan boshlab 65° gacha tekshirib ko'rildi. Tajribalarni 11, 12, 13 % li tukdorlikka ega bo'lgan, past va yuqori ifloslik darajalaridagi chigitlarda o'tkazildi, chunki tozalash uskunasi yuqori va past sanoat navlaridan ajralayotgan chigitlarni ham tozalashda foydalaniladi.

Tarnovning og‘ish burchagini 36° ga o‘rnatilganida tukli chigitlarning harakati sekinlashib, tarnovda to‘da hosil bo‘lib yig‘ila boshladi, shuning uchun ushbu burchakda tajriba ishlari davom ettirilmadi. Tajribalarni tarnovning gorizontal tekislikka nisbatan 45° ; 55° va 65° larda olib borildi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Chigit oqish tarnovining og‘ish burchagini tozalash samarasiga ta‘sirini aniqlash (chigit tukliligi 11%, ifloslik darajasi 1,2 %)

№	Tarnov og‘ish burchagi, $^{\circ}$ gr	Tozalash samarasi, %			O‘r.qiymati, %
		1	2	3	
1	45	33,5	33,6	33,2	33,4
2	55	35,8	36,6	37,2	36,5
3	65	31,4	31,0	32,2	31,5



5-rasm. Jinlangan chigitni tozalash uskunasi tizimga o‘rnatish sxemasi.

1-jindan chigitni yig‘ish shnegi, 2-elevator, 3-elevator shaxtasi, 4-7-otrajatel, 5-tozalagichga toza havoni o‘tkazish uchun quvur, 6-havoni kirishini rostlovchi panjara, 8-chigit tozalash kamerasi, 9-linterlarning taqsimlash shnegi, 10-linter, 11-ventilyatordan tozalagichga quvur, 12-ventilyator, 13-ventilyatordan siklonga quvur, 14-siklon, 15-siklon uchun rama.

Yuqoridagi 1-jadvalda chigit tukdorligi 11 %, iflosligi 1,2% li chigitlarda tarnov qiyalik burchagining 55⁰ da tozalash samarasi 36,5% bo‘lib, boshqa burchaklarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Qiyalik burchagining 45⁰ da chigit harakati sekinlashib, to‘planib sirpanishi sababli iflos aralashmalar chigit tarkibidan ajralishi qiyinlashib tozalash samarasini pasayishiga olib keldi. Tarnovning qiyalik burchagining 65⁰ da chigit tarnovdan tez o‘tib ketishi oqibatida chigit tarkibidagi iflosliklarni ajratishga ulgarmaslik oqibati aniqlandi.

Ishlab chiqarishda paxtaning I- va IV-sanoat navlaridan olinadigan chigitlar tarkibidagi iflosliklardan tozalashni hisobga olib, chigitning yuqori iflosliklarida ham tajribalarni davom ettirib, tarnov qiyalik burchagini yuqori ifloslik darajali chigitlar uchun aniqlash lozimligini ko‘rsatdi. Shuning uchun chigit iflosligi yuqori bo‘lgan holatida tajribalarni davom ettirildi.

2-jadval

Chigit oqish tarnovining og‘ish burchagini tozalash samarasiga ta‘sirini aniqlash (chigit tukliligi 11%, ifloslik darajasi 3,2%)

№	Tarnov og‘ish burchagi, °gr	Tozalash samarasi, %			O‘r.qiymati, %
		1	2	3	
1	45	30,5	29,8	30,0	30,1
2	55	34,5	33,8	34,0	34,1
3	65	29,4	29,2	29,0	29,2

Yuqoridagi tajribalardan ko‘rinadiki, chigitning ifloslik darajasi yuqori bo‘lganida uni tozalash samarasi kamayadi, chunki iflos aralashmalar tukli chigit tanasiga ko‘plab yopishib, iflosliklarning birga o‘tib ketishi kuzatildi. Tozalash kamerasidagi so‘ruvchi havoni oshirish bilan tozalash samarasiga va chiqindiga chigit o‘tish holatlariga ta‘sirini ko‘ramiz. Bunda ventilyator tirqishini kattalashtirish bilan havo tezligini oshirib borildi. Tajriba natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

Tahlillarni aniqligini oshirish uchun korxonada qayta ishlanayotgan jinlangan va linterlangan chigitlarning ifloslik darajasi aniqlandi. Bunda Farg‘ona viloyati “BULUT TEXTIL” MCHJ ga qarashli paxta tozalash korxonasida S-8290 seleksiya navli, I-IV-sanoat navli paxtalardan olinayotgan chigitlarning ifloslik darajasini o‘zgarishi o‘rganildi. Korxonaning jinlash va linterlash jarayonidan olinayotgan chigitlardan namuna olinib, elak yordamida tozalandi va iflosliklarni fraksiyalarga bo‘lib aniqlandi 6-rasm va 3-4-jadvallar.

I-sanoat navli paxta xomashyosidan olingan chigitni jinlashda ajratilgan tukli urug‘lik chigitni standart asosida namunalarni olib, tarkibidagi iflosliklar o‘rganildi. Natijada poya, chanoq va guldon parchalari mavjudligi aniqlandi va ularni fraksiyalarga bo‘lindi (6-rasm). Linterdan so‘ng chigit tarkibini o‘rganilganda ko‘rinadiki iflos aralashmalarning o‘lchamlari kichiklashgan va maydalanib chigit va momiq tarkibiga qo‘shilgan. Paxta sanoat navlari bo‘yicha paxta ifloslik darajasiga ko‘ra chigit tarkibidagi iflosliklar fraksiyalari bo‘yicha quyidagi 3-4-jadvallarda keltirilgan.



6-rasm. I-sanoat navli paxtadan ajratilgan jinlangan chigit tarkibidan olingan yirik va mayda iflos aralashmalar.



7-rasm. Linterlangan chigit tarkibidagi ifloslik darajasi.

3-jadval

Jinlash jarayonidan olingan chigitlarning ifloslik darajasi tahlili

Sanoat navi	Paxta iflosligi, %	Paxta namligi, %	Singan, pishmagan chigitlar miqdori, %	Chigit tarkibidagi iflos aralashmalar		
				Mayda iflosliklar, %	Yirik iflosliklar, %	Umumiy ifloslik, %
I	5,6	8,5	0,2	0,7	0,4	1,1
II	8,8	9,6	0,3	0,8	0,5	1,3
III	11,6	11,5	0,5	1,7	1,1	2,8
IV	13,8	12,6	0,9	2,0	1,5	3,5

Yuqorida olingan tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, paxtaning ifloslik darajasi katta bo‘lsa, chigit tarkibidagi ifloslik ham o‘sib boradi, bunda I-sanoat navli

paxtaning iflosligi 5,6 % ni tashkil etsa, jinlangan chigitning ifloslik darajasi 1,1 % ni tashkil etmoqda, IV-sanoat navli paxta iflosligi 13,8% ni tashkil etganda esa, jinlangan chigitning iflosligi 3,5% ni tashkil etmoqda. Tahlillardan ko‘rinadiki paxtaning ifloslik darajasi chigitning iflosligiga ta’sir qilar ekan, paxtaning ifloslik darajasini kamaytirish bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilganligiga va ayrim yangiliklar kiritilganiga qaramasdan hozirgacha paxtani tozalash muammoligicha qolmoqda, shuning uchun momiqning ifloslik darajasini kamaytirish uchun chigitni tozalashni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Yakuniy xulosalarga kelish uchun linterlash jarayonidan ham chigit va momiqning ifloslik darajalarini tahlilini olib borildi (4-jadval).

4-jadval

Linterlangan chigitning va momiqning ifloslik darajasini tahlili

Sanoat navi	Singan, pishmagan chigitlar miqdori, %	Chigit tarkibidagi iflosliklar			Momiqning iflosligi, %
		Mayda iflosliklar, %	Yirik iflosliklar, %	Umumiy ifloslik, %	
I	0,0	0,6	0,4	1,0	9,5
II	0,2	0,7	0,4	1,1	10,8
III	0,3	1,4	1,1	2,5	14,5
IV	0,6	1,9	1,3	3,2	16,2

5-jadval


Tozalagichda havo tezligini tozalash samarasiga va chigitni chiqindiga o‘tishga ta’sirini tahlili (chigit ifloslik darajasi 1,2%)

No	Chigit tukdorligi, %	Havo tezligi, m/s	Chiqindida chigit miqdori, %	Tozalash samarasi, %
1	11	0,9	0,1	29,6
	12		0,15	27,2
	13		0,1	26,5
2	11	1,2	0,45	31,5
	12		0,5	29,0
	13		0,48	27,8
3	11	1,5	0,7	33,8
	12		0,65	31,6
	13		0,7	29,2

Yuqoridagi 3-jadvalda havo tezligini 0,9 m/s ga o‘rnatilganida chigit tukdorligining 11-13% larida tozalash samarasi 29,6 % dan 26,5% gacha o‘zgardi, chiqindi tarkibini tahlil qilinganda 0,1 % chigit o‘tganligi aniqlandi, bu esa chigit tozalash pnevmatik uskunalariga qo‘yilgan talabga javob beradi. Havo tezligini 0,9 dan 1,5 m/s ga oshirilganida, havo tezligining kattaligidan chiqindiga qo‘shilib chiqadigan chigitlar miqdorini ham oshishiga olib keldi, bunda tozalash samaradorligi 29,6-26,5 % dan 33,8-29,2% gacha o‘shishini ko‘ryapmiz, lekin, chiqindiga o‘tayotgan chigitlar miqdori ham ortishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ushbu ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri aniqlanishi uchun to‘liq omilli tajribalar, optimallashtirish usullaridan foydalaniladi.

Chigit ifloslik darajasining yuqori holatida, havo tezligining ortishidan tozalash samaradorligi ortib bormoqda, lekin chiqindidagi chigitlar miqdorini ortib borayotganligini ko‘ramiz. Jindan keyingi chigitlarning tuklilik darajasi yuqori bo‘lganligi uchun chigitlarning bir-biriga ilashimligi va tuklari bilan iflos aralashmalarni ushlab qolish miqdorining kattaligi uchun chigitlarni titib turuvchi silkituvchi moslamalarni chigit tarnovida qo‘llash orqali tozalash samarasini oshirish mumkinligini ko‘rib chiqamiz. Bunda chigit tushish tarnoviga kelayotgan chigitlarni titish uchun taroqsimon uchlik yo‘naltiruvchi mexanizm o‘rnatildi, ushbu mexanizm chigitlarning harakatida o‘rnatilgan prujina asosida harakatga keltiriladi va chigitlarni tozalashga uzatishda titkilash vazifasini bajaradi.

Bunda chigit tarnovining yo‘naltiruvchi qiya moslamasining pastki qismini taroqsimon tayyorlandi (8-rasm) va qiya moslamaga prujina o‘rnatib, chigit ta’siridan qimirlashini va kelib o‘rilayotgan chigitlarni titilishini ta’minlab beradi.



**8-rasm. Chigit tarnovida tituvchi taroqsimon qiya moslamasi.
1-taroqli yo‘naltiruvchi list, 2-prujina.**

Ushbu tituvchi moslamani qo‘llab o‘tkazilgan tajriba natijalari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

Tajribalarni S-8290 seleksiya navli, I va IV-sanoat navli, iflosligi 5,6 va 12,8% li paxtalardan ajralayotgan chigitlarda amalga oshirildi. Jinlashdan ajralayotgan chigitlarning mexanik shikastlanishini o‘lchandi, bunda, chigit tukdorligi 11 % da mexanik shikastlanganlik 3,5 % ni, chigit tukdorligi 13 % da mexanik shikastlanganlik 2,8% ni tashkil etdi.

6-jadval

Tituvchi taroqsimon moslamani qo‘llanilganda uskuna tozalash samarasiga ta’sirining natijalari

Chigitlarning tukdorlik darajasi, %	Chigitning iflosligi, %	Mexanik shikastlanishi, %	Tozalash samarasi, %
11	1,1	3,5	38,3
	3,3	3,6	33,8
13	1,2	2,8	34,4
	3,2	2,7	29,8

Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki chigit tukdorligi 11 % da va iflosligi 1,1 % bo‘lganida titilishi natijasida tozalash samaradorligi 38,3 % ni tashkil etmoqda. Ifloslik

darajasi yuqori, 3,3% bo'lganida tozalash samarasi 33,8 % ni tashkil etmoqda. Chigit tuklilik darajasini 13 % da esa chigit tanasidagi tuklarni iflosliklarni ushlab qolishi evaziga tozalash samaradorligini chigit ifloslik darajasining 1,2 %da 3,9% ga kamayganligini ko'ramiz, bu esa tituvchi moslama o'rnatilmagan holatiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Chigitni tozalashdan oldin titishni amalga oshirish moslamasini qo'llanishdan chigitlarning tuklarining yuqoriligidan bir biriga yopishib hosil bo'lgan to'plamlarni donalanishi oqibatida orasidagi iflos aralashmalarni ajralishini ta'minlashi ko'rinadi va tozalash samaradorlikni oshishiga olib keladi.

Dastlabki o'tkazilgan tajribalar asosida jinlangandan keyingi chigitni sifatli tozalanishini ta'minlash uchun eng ko'p ta'sir etuvchi omillar tanlab olindi va to'liq omilli tajribalar o'tkazildi. Tajribalarni amalga oshirish uchun S-8290 seleksiya navli, jinlangan chigit tukdorligi 11,5 % li, dastlabki iflosligi – 1,2 %, namligi - 8,6 %, chigitning mexanik shikastlanganligi -3,2 % bo'lgan tukli chigitlardan foydalanildi.

Jinlangan chigitni tozalash uskunasi sifatini baholash kriteriyasi sifatida uskunaning tozalash samaradorligi Y_1 va ifloslikda chigit miqdori Y_2 olindi. Belgilangan kriteriyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar: havo tezligi X_1 , havoni rostlovchi panjara burchagi X_2 , tarnov burchagi X_3 .

Tajriba natijalarini, kompyuter amaliy dasturlaridan foydalanilgan holda, dastlabki ishlash natijasida Fisher kriteriyasi bo'yicha barcha chiqish ko'rsatkichlarini yetarli darajada tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

Tozalash samarasi Y_1 bo'yicha regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_1 = 37.450 + 1.410 X_1 + 0.747 X_2 + 0.310 X_3 - 2.400 X_1^2 - 0.525 X_1 X_3 - 1.817 X_2^2 \quad (7)$$

Ifloslikda chigit miqdori Y_2 bo'yicha regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_2 = 0.134 + 0.032 X_1 - 0.016 X_3 + 0.029 X_1 X_2 - 0.012 X_1 X_2 + 0.022 X_2^2 \quad (8)$$

Hosil bo'lgan optimizatsiya masalasi tasodifiy qidiruv usuli va zamonaviy kompyuter amaliy dasturlar dasturlari yordamida yechildi va quyidagi optimal yechimlar olindi: havo tezligi $X_1 = 0,9$ m/s, rostlanuvchi panjara burchagi $X_2 = 47^\circ$, tarnov burchagi $X_3 = 65^\circ$ bo'lganida uskunaning maksimal tozalash samarasi $U_1 = 37,9$ % ga va iflosliklarga chigit miqdorining o'tishi 0,12% ni tashkil etib, tozalash uskunalariga belgilangan me'yordan oshib ketmadi

Dissertatsiya ishining **“Linterlashdan oldin chigitni tozalash uskunasi ishlab chiqarish sinovlari va iqtisodiy samaradorligi”** nomli to'rtinchi bobida ishlab chiqarish sinovlari natijalari keltirilgan.

Tukli chigitni iflos aralashmalardan tozalash uskunasi Farg'ona viloyati “BULUT TEXTIL” MCHJga qarashli paxta tozalash korxonasi jin-linter sexiga, jinlangan chigitni linterlash uchun elevatoridan taqsimlovchi shnekka yo'naltirayotgan tarnov o'rniga o'rnatildi (9-rasm) va asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi. Uskunani aniqlangan ko'rsatkichlari bo'yicha sozlanib, sinov ishlariga tayyorlandi, sinov ishlarini yuqori va pastki sanoat navli paxtalarni qayta ishlash vaqtida olib borildi, bunda S-8290 seleksiya navli, I va IV-sanoat navli paxtalardan olingan chigitlardan har bir sinov birligi uchun 1000 kg dan tortib olindi.

Korxonada laboratoriyasida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, I-sanoat navli paxtaning dastlabki namligi 8,5%, iflosligi 8,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, undan olingan chigit tukdorligi 11,0% ni, ifloslik darajasi 0,9 % ni, namligi 7,2% ni tashkil etdi. IV-

sanoat navli paxtaning dastlabki namligi 12,2% ni, iflosligi 13,5% ni tashkil etgan bo'lsa, chigitning tukdorligi 12,5 % ni, iflosligi 3,2 % ni, namligi 9,2 % ni tashkil etdi.

Tajribalarda tozalash samaradorligi va chiqindida yaroqli chigit miqdori aniqlandi (7-jadval).



9-rasm. Tajriba uchun tayyorlangan chigit tozalash uskunasi.

7-jadval

Chigit tozalash uskunasining ishlab chiqarishdagi tajriba sinov ishlarining natijasi

Ko'rsatkichlar	Tajribalarning takrorlanishi			O'rtacha ko'rsatkich	Tozalash samarasi, %
I-sanoat navli paxta chigitida					
Tozalangan chigit ifloslik darajasi, %	0,5	0,6	0,55	0,55	38,9
Chiqindida chigit miqdori, %	0,15	0,15	0,1	0,14	-
IV-sanoat navli paxta chigitida					
Tozalangan chigit ifloslik darajasi, %	2,1	2,0	2,2	2,1	34,3
Chiqindida chigit miqdori, %	0,15	0,2	0,15	0,15	-

Yuqoridagi sinov natijalariga ko'ra I-sanoat navli paxtalardan olingan chigitni tozalashdan so'ng chigit iflosligi o'rtacha 0,55 % ni ko'rsatib, tozalash samarasi 38,9% ni, iflos aralashmalar tarkibida chigit miqdori esa 0,14% ni tashkil etdi. IV-sanoat navli paxta chigitini tozalanganda ifloslik 2,1 % ga tushib, tozalash samaradorligi 34,3 % ni, chiqindida chigit miqdori esa 0,15 % ni tashkil etib, chigit tozalash uskunalariga o'rnatilgan talabga javob beradi.

Korxonada texnologik solishtirishni amalga oshirish uchun oʻrnatilgan jinlangan chigitni tozalash uskunasini ishlatilganda va ishlatilmagan holatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifat koʻrsatkichlarini solishtirish bilan xulosa qilindi. Olingan mahsulotlarning sifat koʻrsatkichlari quyidagi 8-jadvalda keltirilgan. Bu yerda olingan momiq mahsulotining ifloslik darajasini oʻzgarishi oʻrganildi, bunda texnologiyada mavjud OVM-A rusumli momiq tozalash uskunasida tozalash bajarilayotgan ekan. Momiq tozalagichdan oldin momiq iflosligi I-sanoat navli paxta chigitini tozalanmaganda 6,5 % ni, tozalangandan esa 4,8% ni tashkil etsa, IV-sanoat navli paxta chigiti tozalanmaganda 12,2% ni tashkil etsa, chigit tozalangandan soʻng 9,4% ni tashkil etdi.

8-jadval

Ishlab chiqarishdan olingan momiq mahsulotlarining solishtiruv koʻrsatkichlari

№	Chigit tozalagichsiz olingan momiq koʻrsatkichlari					Chigit tozalangan momiq koʻrsatkichlari				
	tarkibi, %					tarkibi, %				
	momiq	chigit	Mayda ifl.	Yirik ifl.	Jami iflosligi, %	momiq	chigit	Mayda ifl.	Yirik ifl.	Jami iflosligi, %
I-sanoat nav paxta chigitidan										
1	94,5	1,5	2,2	1,8	5,5	95,8	1,2	1,5	1,5	4,2
2	93,8	1,8	2,3	2,1	6,2	95,5	0,9	2,0	1,6	4,5
3	94,6	1,6	1,8	2,0	5,4	96,0	1,1	1,6	1,3	4,0
Oʻr.	94,3	1,64	2,1	1,97	5,7	95,7	1,06	1,7	1,46	4,2
B tip, I-nav, oʻrta sinfga mansub						B tip, I-nav, oliy sinfga mansub				
IV-sanoat navli paxta chigitidan										
1	89,5	3,2	3,8	3,5	10,5	92,2	2,5	2,6	2,7	7,8
2	89,2	3,4	3,6	3,8	10,8	91,8	2,7	2,7	2,8	8,2
3	89,0	3,5	3,8	3,7	11,0	92,0	2,5	2,6	2,9	8,0
Oʻr.	89,2	3,3	3,7	3,7	10,7	92,0	2,5	2,6	2,8	8,0
II-nav B tip oʻrta sinf						II-nav B tip oliy sinf				

Yuqoridagi 8-jadvaldan koʻrinadiki, jinlashdan soʻng chigitni iflosliklardan tozalanmasdan oʻtkazilganda I-sanoat navli chigit momigʻining ifloslik darajasi texnologiyada joylashgan OVM-A rusumli momiq tozalagichida tozalanganidan soʻng 5,7% ni tashkil etib, momiqni B tip, I-nav, oʻrta sinfga mansubligi aniqlandi. Jinlashdan soʻng chigitni iflosliklardan tozalash uskunasini oʻrnatilgan variantida, olingan momiqning ifloslik darajasi 4,2 % ni tashkil etib, B tip, I-nav, oliy sinfga mansubligi aniqlandi.

IV-sanoat navli paxtadan olingan chigit momigʻini tahlil qilinganda momiqning iflosligi chigit tozalanmagan holatida OVM-A momiq tozalash mashinasidan soʻng 10,7 % ni tashkil etib, Oʻz DSt 645:2010 “Paxta momigʻi. Texnikaviy shartlar” standart talabining II-nav B tip oʻrta sinfga mansub boʻlsa, chigit tozalanganidan soʻng esa momiqning iflosligi 8,0% ni tashkil etib, II-nav B tip oliy sinfga mansubligi aniqlandi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Paxtada iflosliklarni kelib chiqishini tahlil qilinganda, dalalardan paxta zavodlariga olib kelinayotgan mashinada va qo'lda terilgan paxta xomashyosida ko'p miqdorda iflosliklar qo'shilgan bo'lib, ularni olib tashlash uchun ishonchli tozalash uskunalari talab qiladi.

2. Chigitlardan iflos aralashmalarni ajratishda havo oqimining tezligini rostlovchining $\alpha_2 = 45^\circ$ qiymatida, hamda chigit massalarining turli xil $m_1 = 0.5 \text{ gr}$, $m_2 = 1.5 \text{ gr}$, $m_3 = 2.5 \text{ gr}$ qiymatlaridagi tozalash jarayonida aniqlangan qamrash burchaklarini havo tezliklariga bog'liqlik ifodasidan chigit oqimidan iflosliklarni ajratishda va saralashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

3. Chigit oqimiga ta'sir kuchini yo'naltiruvchi panjarani o'zgaruvchan burchak bo'yicha harakati orqali chigit oqimidan iflos aralashmalarni ajratishda havo kuchini to'g'ri yo'naltirish bilan tozalash samaradorlikka erishish uchun havoning yo'naltiruvchi burchagi orqali oqim tezligini $\vartheta_{01} = 0.9 \text{ m/s}$ qiymatida chigitlarga ta'sir kuchi dastavval oshib, tozalash jarayonida kamayishi mumkin, bu esa chigitlardan iflos aralashmalarni ajratishda ta'sir kuchini yuqori bo'lishi tozalash samaradorlikka erishishiga olib keladi.

4. Tozalovchi kameradagi chigit va iflosliklarning massalari turli xil $m_1 = 0.5 \text{ gr}$, $m_2 = 1.5 \text{ gr}$, $m_3 = 2.5 \text{ gr}$ bo'lgandagi harakati keltirilgan. Chigit va iflosliklarni bir qismini uzatishda havoning kameradagi tezligini ratsional $\vartheta_{01} = 0.9 \text{ m/s}$ qiymatini tanlash va shu orqali chigit va iflosliklarni ajratish masalasi ishlab chiqilgan.

5. Chigitni tozalashdan oldin titib uzatish bilan chigitni tozalash samarasini oshirish yo'lida o'rnatilgan moslamada o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, chigitlarning tuklarini yuqoriligidan bir biriga yopishib hosil bo'lgan to'plamlarni donalanishi oqibatida orasidagi iflos aralashmalarni ajralishini yaxshilandi va tozalash samaradorligini oshishiga olib keldi.

6. O'tkazilgan to'liq omilli tajribalar natijasi bo'yicha havo tezligi $X_1=0,9 \text{ m/s}$, havoni rostlovchi panjara burchagi $X_2=47^\circ$, tarnov burchagi $X_3=65^\circ$ bo'lganida uskunaning maksimal tozalash samarasi $U_1=37,9 \%$ ga va iflosliklarga chigit miqdorining o'tishi $0,12\%$ ni tashkil etib, tozalash uskunalariga belgilangan me'yordan oshib ketmadi.

7. Uskunaning sinov natijalariga ko'ra I-sanoat navli paxtalardan olingan chigitni tozalashdan so'ng chigit iflosligi o'rtacha $0,55 \%$ ni ko'rsatib, tozalash samarasi $38,9\%$ ni, iflos aralashmalar tarkibida chigit miqdori esa $0,14\%$ ni tashkil etdi. IV-sanoat navli paxta chigitini tozalanganda ifloslik $2,1 \%$ ni, tozalash samaradorligi $34,3 \%$ ni, chiqindida chigit miqdori esa $0,15 \%$ ni tashkil etib, chigit tozalash uskunalariga o'rnatilgan talabga javob berdi.

8. Jinlangan chigitni linterlashdan oldin tozalash uskunasini joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik momiq va chigitning sifat ko'rsatkichlarini oshishi hisobidan mavsumda $102,7 \text{ mln.so'mni}$ tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/30.09.2023.Т.66.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АКРАМОВ МУХАММАДАЛИ МУРОДЖОН УГЛИ

**РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ ОЧИСТИТЕЛЯ СЕМЯН ПЕРЕД
ЛИНТЕРОВАНИЕМ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЛИНТА И СЕМЯН**

**05.02.03-«Технологические машины. Роботы, мехатроника и робототехнические
системы»**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философских (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/T4671.

Диссертация выполнена в Ферганском политехническом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен в веб-сайте Наманганского политехнического института (www.nammti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Джамолов Рустам Камолидинович**
Доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Каюмов Абдумалик Хамидович**
Доктор технических наук, профессор

Саримсаков Олимжон Шарипджанович
Доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Термезский государственный университет
инженерии и агротехнологий**

Защита диссертации состоится 2025 года 3 мая в 10:00 часов на заседании Научного совета при Наманганском инженерно-технологическом институте PhD.03/30.09.2023.T.66.01 по адресу: 100116, г.Наманган, ул. Косонсой 7, тел: (+99869) 228-76-65, 228-76-68, факс: 228-76-65; e-mail: niet_info@edu.uz (Наманганский инженерно-технологическом институт).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована за № 381) по адресу: 100116, г.Наманган, ул.Косонсой, 7, тел:(+99869) 228-76-65, 228-76-68.

Автореферат диссертации разослан 19 апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 31/3 от "15" марта 2025 года).

А.М.Махкамов

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней д.т.н., доцент

Ш.А.Махсудов

Ученый секретарь Начучного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

Н.М.Сафаров

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней , д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировой спрос на хлопковое волокно, усиливающаяся конкуренция на хлопковом рынке, выведение и районирование новых селекционных сортов хлопка в странах-производителях, развитие и внедрение технологий подготовки семенного хлопка требуют улучшения потребительских свойств продукции и снижения производственных затрат, что, в свою очередь, играет ведущую роль в снижении оптовых цен на хлопок.

С этой точки зрения, в мировом масштабе особое значение приобретают улучшение качества семенного хлопка и снижение его себестоимости, повышение энергии прорастания семян за счёт качественной сортировки и отделения полноценных семян, сокращение расхода посевного материала, повышение устойчивости к болезням, выявление и устранение факторов, негативно влияющих на качество продукции на всех этапах подготовки семян, в том числе и в процессе их очистки. Повышение эффективности производства за счёт снижения себестоимости продукции, а также применение в практике энерго- и ресурсосберегающих технических средств и устройств - являются важнейшими задачами.

Во всём мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование технологий предварительной переработки хлопка, особенно технологий очистки хлопка и семян от примесей. В частности, ставятся задачи по разработке эффективных технологий очистки семенного хлопка от загрязнений. Особое внимание уделяется выявлению и устранению факторов, отрицательно влияющих на качество и количество продукции на каждом этапе производства, разработке технологических решений, позволяющих сохранить качественные показатели хлопкового семени в процессе его очистки, а также управлять качеством продукции, что способствует повышению эффективности всех технологических процессов.

